

## KIMYO FANLARINI O'QITISH METODIKASI VA SAMARALI YO'LLARI

Erkin tadqiqotchi Karimova Feruza Sattarovna, talabalar Xolmatov Abbas Asqar o'g'li,  
 Maxkamov Iftixor Jahongir  
 Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston  
 Email: [f.karimova.85@gmail.ru](mailto:f.karimova.85@gmail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo o'qitishning metodlari va uslublari haqida tushunchalar hamda ushbu metodlarning o'quvchilarda kuzatilgan samaradorligi haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** Kimyoviy jarayonlar, modulli o'qitish, kimyo o'qitishning metodlari, interfaol usullar

Kimyo fani o'qituvchisi kimyo fanlari bo'yicha yetuk mutaxasis bolishi lozim. Lekin boshqa kimyogar mutaxasislar kabi kimyoviy bilimlar va malaka – ko'nikmalariga ega bo'lishining o'zi yetarlicha bo'la olmaydi. Ular o'quvchilarga bilim berish va tarbiyalash uchun o'qituvchi bolalarni ayniqsa, ularning o'sish davridagi psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'qitish usullarini toliq egallashi lozim. Kimyo fanini o'qitishning tarbiyaviy tamonini muvafaqiyatli amalga oshirishning zaruriy sharoiti g'oyaviylik, predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish o'quvchilarning tayyorgarlik va yosh xususiyatlarini hamda bilish imkoniyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Kimyo o'quvchilarini kasbiy tayyorlash ko'p bosqichli jarayon bo'lib u talabalarning maxsus kompetentligini o'qish jarayonida doimiy shakillantirib borishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, kimyo, bu – o'quv predmeti, uning asosini kimyo fani tashkil qiladi va u moddalarning tuzilishi, tarkibi, xossalari bir turdan ikkinchi turga aylanish jarayonini o'rganadi. Shunday qilib, kimyo fanini o'rganish jarayonida nafaqat kimyoviy bilimlar, balki umumo'quv va maxsus ko'nikmalar, shu jumladan, tadqiqotchilik ko'nikmakarini ham shakillantirish imkonini beradi. Ushbu maqsadni amalga oshirishga o'qitish mazmuni xizmat qiladi. O'qitish mazmuni ta'lif mazmuniga nisbatan uning maqsadi sanaladi. Modulli o'qitish – o'quv reja, o'quv dastur, darslik, o'qtuvchining axborotlari, o'qitish metodi kabi mazmuniga tayanadi. Kimyo o'qitishning metodlari, shakillari o'qtuvchi mehnatini ilmiy asosida tashkil etish, kimyo o'qitish nazariyasining eng muhim bo'limlari sanaladi. O'qitish metodi falsafiy nuqtaiy – nazardan ta'lif mazmunini harakatlantirish shakli bo'lib hisoblanadi. O'qtuvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lif beruvchi ularni rivojlantiruvchi metodlarni optimal tanlashdan iborat.

O'qitish metodi – o'qituvchi raxbarligida o'quvchilarni maqsadiga qaratilgan bиргаликдаги faoliyati bo'lib hisoblanadi. Kimyo o'qitish metodikasining o'ziga xos alohida xususiyatlari mavjud.

1. Kimyo metodik amaliy va o'qitish mazmuniga asoslangan nazariy fan.

2. O'quvchilarning bilim faoliyati tafakkur qirralarini o'stirishga qaratilgan bo'lib, moddaning aniq xossasi o'zgarishi, tuzilishi, xossalari, holati va tarkibi kabi fikir yuritishga, o'quvchilarni o'ylashiga olib keladi.

Metodning avzalligi shundaki, bunda o'quvchining faolligi sinfdagi barchaga yaqqol ko'rinish turadi. Cho'qqiga bo'lgan intilish esa o'quvchilarning darsdagi faolligini taminlab beradi. Metodlarning barchasi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi bu esa talim sifatini oshishiga xizmat qiladi.

Interfaol usullar, loyihamalar va modellashtirish usuli o'quvchilarga kimyo fanini o'qitish texnologiyalari sifatida tavsiflanadi. Ushbu usullar maktab o'quvchilarining kontseptual tafakk kimyoviy fikrlash va talabalar onging kimyoviy yo'naliishi o'qituvchilar tomonidan loyiha usuli, interfaol usullar va kimyoviy ob'ektlarni modellashtirish usulidan foydalanish bilan bog'liq.

Kimyogar tafakkuri mahsuldorligining asosiy omili kimyoviy jarayonlar va kimyoviy elementlarning o'zaro ta'sirini tushunish, bilishdir. Ya'ni, materiya harakatining kimyoviy shakli ta'lim jarayonida qanchalik chuqur va nozik aks etsa, o'quvchilar ongining kimyoviy yo'naliishi shunchalik samarali shakllanadi. urini rivojlantirishga yordam beradi va kimyoni o'zlashtirish muvaffaqiyatini oshiradi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion usullarning eng yirik guruhlardan biridir. Bularga guruh muhokamasi, aqliy hujum, trening texnologiyalari (kimyoviy tajriba usuli kontekstida) kiradi. Kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli sifatida interfaol usullar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fan o'qitishda dars jarayonida turli xil inavatsion va pedagogik texnalogiya, metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonini oshiradi va turli xil mextodlar, usullardan foydalanib o'quvchilarda kimyoviy bilimlarni bilimlarini va ushbu fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997
2. I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T. O'zbekiston, 1997
3. Umumiyy O'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 1999, 3-sod
4. I. N. Borisov. Ximiya o'qitish metodikasi. Toshkent, 1958.
5. Z.Asimova. "Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish" T.: 1995.
6. "Xalq ta'limi jurnali" T.1998-2005 y.